ENERGETIKA OMILINING DAVLATLAR TASHQI SIYOSATIDAGI O‘RNI (SAUDIYA ARABISTONI MISOLIDA)

Minovvarova Malikaxon Ulug‘bek qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Saudiya Arabistonining tashqi siyosatida energetika omilining strategik roli tahlil qilingan. Muallif energetika resurslarini nafaqat iqtisodiy manba, balki siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan asosiy instrument sifatida ko‘rib chiqadi. Maqolada rentier davlat nazariyasi va energetik realizm paradigmalari orqali Saudiya Arabistonida neft va gaz daromadlarining ichki siyosiy barqarorlik, iqtisodiy mustaqillik va tashqi siyosiy faoliyatga qanday ta’sir qilishi yoritilgan. Shuningdek, OPEC va OPEC+ doirasidagi siyosiy hamkorlik, global energetika bozori va yetakchi davlatlar bilan aloqalar energetika resurslari orqali mamlakatning geosiyosiy pozitsiyasini mustahkamlashdagi strategik ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Saudiya Arabistoni, energetika omili, tashqi siyosat, rentier davlat nazariyasi, energetik realizm, strategik diplomatiya, Fors ko‘rfazi, global energetika bozori.

Saudiya Arabistoni dunyoning eng yirik neft eksportyorlaridan biri sifatida tashqi siyosiy strategiyasini, avvalo, energetika resurslarini boshqarish va ulardan samarali foydalanish orqali amalga oshirib kelmoqda. Shu bois mazkur davlat tashqi siyosatini tahlil qilishda energetika omilini ikkilamchi iqtisodiy omil sifatida emas, balki siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir etuvchi markaziy strategik vosita sifatida ko‘rib chiqish zarur. Saudiya Arabistoni misolida energetika resurslari ichki siyosiy barqarorlik, iqtisodiy mustaqillik va tashqi siyosiy faoliyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalarni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Saudiya Arabistonining energetika omili ko‘p darajali strategik ahamiyat kasb etib, neft va gaz daromadlari orqali ichki siyosiy legitimlik hamda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, Fors ko‘rfazi mintaqasida strategik ustunlik va mintaqaviy siyosiy ta’sirni mustahkamlash, shuningdek OPEC+, global energetika bozorlari va yirik davlatlar bilan strategik hamkorlik doirasida mamlakatning geosiyosiy pozitsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Energetika omilining mohiyatini chuqur anglash uchun, avvalo, Saudiya Arabistonining tashqi siyosatidagi strategik qarorlarni izohlab beruvchi yetakchi nazariy yondashuvlarga murojaat qilish zarur. Rentier davlat nazariyasi Saudiya Arabistonida siyosiy legitimlikning iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlash hamda ijtimoiy kompensatsiya mexanizmlari orqali shakllanish jarayonini izohlaydi. Mazkur yondashuv doirasida neftdan olinadigan daromadlar davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy kelishuvning asosiy institutsional poydevorini tashkil etadi. Shu bilan birga, energetik realizm hamda resursga asoslangan tashqi siyosat konsepsiyalari neft va gazni nafaqat

iqtisodiy foyda manbai sifatida, balki ichki siyosiy barqarorlikni mustahkamlash va xalqaro maydondagi siyosiy ta’sirni kuchaytirishga xizmat qiluvchi strategik vosita sifatida talqin qiladi. H.Beblavi ta’kidlaganidek, rentier davlatlarda siyosiy legitimlik, asosan, soliqqa asoslangan ijtimoiy kelishuv orqali emas, balki davlat tomonidan resurs daromadlarini qayta taqsimlash hamda ijtimoiy kompensatsiya mexanizmlari orqali shakllanadi[1].

Saudiya Arabistoni sharoitida neftdan olinadigan daromadlar davlatning moliyaviy mustaqilligini ta’minlab, siyosiy tizimning ichki barqarorligini mustahkamlaydi. Ushbu holat davlat hokimiyatiga jamiyat bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy bog‘liqlikni minimallashtirish, siyosiy muxolifatni cheklash va ijtimoiy norozilikni iqtisodiy kompensatsiya orqali boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, neft daromadlariga tayangan siyosiy model Saudiya Arabistoniga tashqi siyosatda nisbatan erkin va mustaqil qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan moddiy bazani ham yaratadi. Demak, energetika resurslari rentier davlat modeli doirasida ichki barqarorlikni ta’minlovchi omil bo‘lish bilan birga, tashqi siyosatning institutsional va moliyaviy tayanchiga ham aylanadi.

Energetika masalasi zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida tobora mustaqil strategik omil sifatida shakllanib, davlatlarning qudrati va ta’sir doirasini belgilovchi muhim instrumentga aylanmoqda. Shu sababli energiya resurslarini tahlil qilishda realizm paradigmasi asosiy metodologik yondashuvlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur paradigma davlatlarning xalqaro tizimdagi xatti-harakatlarini moddiy resurslar va kuch omili orqali izohlash imkonini beradi.

Energetika omilini tashqi siyosiy instrument sifatida yanada chuqurroq anglash uchun energetik realizm paradigmasiga murojaat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Realizm nazariyasiga muvofiq, davlatlar xalqaro tizim sharoitida o‘z milliy manfaatlarini maksimal darajada himoya qilishga intiladi va ushbu jarayonda moddiy resurslar, xususan strategik ahamiyatga ega resurslar, asosiy kuch omillari sifatida maydonga chiqadi. Energetik realizm esa energiya resurslarini davlat qudratining moddiy va institutsional asoslaridan biri sifatida talqin qiladi.

G.Chesnakas ta’kidlaganidek, birlamchi energiya resurslari davlat qudratini belgilovchi asosiy komponentlardan biri bo‘lib, resurslarga egalik darajasi va ularni boshqarish salohiyati davlatning xalqaro maydondagi ta’sirini aniqlaydi[2]. Ushbu yondashuv energiya resurslari va siyosiy qudrat o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni nazariy jihatdan mustahkamlaydi.

Realizm doirasida energiya resurslari faqat bozor qiymati bilan emas, balki ularning strategik va geosiyosiy ahamiyati bilan baholanadi. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, neft, gaz va boshqa strategik resurslar ko‘plab davlatlar tomonidan tashqi siyosiy bosim, ta’sir va kelishuvlar vositasi sifatida qo‘llanilgan. Shu sababli energiya resurslari tashqi siyosatda “qattiq kuch” (hard power) elementlari tarkibiga kiritiladi va ularning boshqarilishi davlatning umumiy tashqi siyosiy strategiyasining ajralmas qismiga aylanadi.

Saudiya Arabistoni misolida energetik realizm paradigmasi energetika resurslarining tashqi siyosatda faol qo‘llanilishini yaqqol ko‘rsatadi. Mamlakat dunyodagi eng yirik neft zaxiralaridan biriga egaligi sababli, energiya resurslari uning milliy qudrati va global siyosiy pozitsiyasini belgilovchi asosiy moddiy omil hisoblanadi. Energiya resurslarini eksport qiluvchi davlatlar ishlab chiqarish hajmini oshirish yoki kamaytirish orqali xalqaro bozorlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi va o‘zlarining xorijdagi siyosiy ta’sir doirasini kengaytirishi mumkin. Mazkur nazariy xulosa Saudiya Arabistonining OPEC va OPEC+ doirasidagi siyosatini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Energetika resurslari orqali bozorni boshqarish, narxlar va ishlab chiqarish kvotalarini muvofiqlashtirish Riyodga global energiya tizimida alohida strategik mavqe beradi.

Saudiya Arabistoni tashqi siyosatida energetika omili alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Mamlakat dunyodagi eng yirik neft zaxiralaridan biriga egaligi sababli, energiya resurslari uning milliy qudrati va xalqaro maydondagi ta’sirini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. G.Chesnakas bu holatni umumiy nazariy xulosa sifatida energiya resurslarini eksport qiluvchi davlatlar qazib olish hajmini oshirish yoki kamaytirish orqali o‘zlarining xorijdagi ta’sir doirasini kengaytirishi va xalqaro bozorlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini keltiradi[2]. Bu xolat Saudiya Arabistonining OPEC doirasidagi siyosatini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Neft

qazib olish hajmini tartibga solish orqali Saudiya Arabistoni nafaqat jahon neft narxlariga ta’sir o‘tkazadi, balki yirik energiya iste’molchi davlatlar bilan siyosiy munosabatlarda muhim strategik ustunlikka ham erishadi.

Saudiya Arabistonining tashqi siyosatida energetika omili nafaqat ichki barqarorlikni ta’minlovchi vosita, balki global siyosiy maydonda strategik ta’sir instrumenti sifatida faol namoyon bo‘ladi. Riyod dunyodagi eng yirik neft zaxiralariga egaligi, yuqori ishlab chiqarish quvvatlari va eksport hajmi orqali global energetika tizimida markaziy o‘rin egallaydi. Energetik resurslarni ishlab chiqarish hajmini oshirish yoki kamaytirish, global neft narxlariga ta’sir o‘tkazish hamda siyosiy va iqtisodiy bosim mexanizmlarini yaratish orqali Riyod tashqi siyosatda faol instrument sifatida harakat qiladi[3]. Shu nuqtayi nazardan, Saudiya Arabistoni energetika resurslarini global siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadigan ko‘p qirrali vosita sifatida ishlatadi.

Energetika omili orqali erishilgan bozor ta’siri Saudiya Arabistonining global siyosiy pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Qirollik global yetkazib berish tarmog‘ida barqarorlikni ta’minlash va jahon iqtisodiyotidagi energiya muvozanatini boshqarish orqali nafaqat iqtisodiy manfaatlarni qo‘llab-quvvatlaydi, balki ko‘plab davlatlar bilan strategik aloqalarni ham mustahkamlaydi. Shu yo‘l bilan global iqtisodiy va siyosiy maydonda o‘zining geosiyosiy rolini kuchaytiradi va ishlab chiqarish, narxlar hamda yetkazib berish siyosatlarini muvofiqlashtirishda kuchli pozitsiyani saqlab qolishga harakat qiladi.

Eskpertlar ta’kidlashicha, energetika siyosatini tuzishda Saudiya ichki va tashqi talablar hamda bosimlarni muvofiqlashtirishi kerak, bu esa uning global siyosatdagi strategik o‘rnini yanada mustahkamlaydi [4]. Shu nuqtayi nazardan, Riyod o‘z ichki barqarorligi va tashqi ta’sirini bir-biri bilan uyg‘unlashtiradi. Bu esa uning global siyosiy mavqeini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mamlakat global energetika bozorida yetakchi ishlab chiqaruvchi va eksportyor sifatida o‘z salohiyatini va bozor ta’sirini boshqarish imkoniyatiga ega. Dunyo neft zahiralari va yetakchi ishlab chiqarish quvvatlariga egaligi sababli, Saudiya Arabistoni OPEC doirasidagi yetakchi roli orqali global bozor muvozanatini saqlashga, narxlar va yetkazib berish jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishga qodir[5]. Energetik resurslarni boshqarish orqali Riyod ko‘pincha global neft narxlariga ta’sir qiladi. Bu esa nafaqat bozor kon’yunkturasini, balki diplomatik aloqalarni ham tartibga solishga yordam beradi. Masalan, OPEC+ doirasida 2025-yil sentyabrda qabul qilingan ishlab chiqarish qarorlari global narxlar va yetkazib berish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, shu bilan siyosiy, iqtisodiy va geosiyosiy muvozanat shakllandi[6]. Shu bilan birga, ishlab chiqarish strategiyasi bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlar mamlakat ichidagi siyosiy muloqot va tashqi bosimlarni ham aks ettiradi. Masalan, Rossiya bilan ishlab chiqarish kvotalari bo‘yicha olib boriladigan muzokaralar bozor siyosatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi[7].

IEA World Energy Outlook hisobotiga ko‘ra, global miqyosda yashil energetikaga o‘tish tendensiyalarining kuchayishi va energiya bozorlarining transformatsiyasi neftga bo‘lgan talabni sekinlashtiradi hamda Saudiya Arabistonining uzoq muddatli energetik strategiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi[8]. Shu bilan birga, EU Green Deal kabi iqlim siyosatlari birlamchi yoqilg‘ilarga tayanadigan davlatlar uchun siyosiy bosimni kuchaytiradi, karbon chiqindilarini kamaytirish va yashil energiyaga o‘tishni rag‘batlantirish orqali Riyodning strategik rejalari uchun strukturaviy cheklovlarni yaratadi[9]. Natijada, Saudiya energetika siyosati nafaqat ichki iqtisodiy barqarorlikni saqlash, balki global iqlim siyosati va bozor transformatsiyasiga moslashish zarurati bilan ham yuzlashmoqda. Bu jarayon Saudiya Arabistonini energetika resurslaridan tashqi siyosiy instrument sifatida foydalanishda ehtiyotkorlik va moslashuvchanlikni talab qiladi. Shu sababli mamlakat, global va mintaqaviy energetik transformatsiyalar fonida, strategik qarorlarni ishlab chiqishda uzoq muddatli risklarni va siyosiy cheklovlarni hisobga olgan holda harakat qilmoqda. Natijada, energetika Saudiya Arabistonining tashqi siyosatida bir vaqtning o‘zida ustunlik, raqobat va cheklov manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Riyod Fors ko‘rfazidagi yetakchiligini mustahkamlashga intilar ekan, global va mintaqaviy o‘zgarishlar bu vositaning samaradorligini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shu bilan birga, energetika resurslari Saudiya uchun strategik va diplomatik moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

Bu chaqiriqlarga javob sifatida Saudiya Arabistonining Vision 2030 strategiyasi energetika siyosatiga yangi institutsional o‘lcham beradi. Ushbu strategiya mamlakat iqtisodiyotini neftga qaramlikdan bosqichma-bosqich xalos etishni maqsad qilgan bo‘lsa-da, qisqa va o‘rta muddatda energetika resurslari tashqi siyosatning asosiy tayanchi bo‘lib qolmoqda. Saudi Vision 2030 [10] rasmiy hisobotlariga ko‘ra, Saudiya Arabistoni davlatining uzoq muddatli strategiyasi neftga bog‘liqlikni kamaytirish, iqtisodiy diversifikatsiya va barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bu strategik rejalar global va ichki siyosat uchun muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilganda, Saudiya Arabistonining energetika resurslari mamlakat tashqi siyosatida faqat iqtisodiy omil sifatida emas, balki siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan strategik instrument sifatida faol namoyon bo‘ladi. Energetika resurslari nafaqat davlatning moliyaviy salohiyatini oshiradi, balki siyosiy legitimlikni mustahkamlash, ichki barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy muvozanatni boshqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Beblawi H. The Rentier State in the Arab World // Arab Studies Quarterly. – 1987. – Vol. 9. – No. 4. – P. 383-398

2. Česnakas G. Energy resources in foreign policy: a theoretical approach // Baltic Journal of Law & Politics. – 2010. – Vol. 3. – No.1. – P.31

3. Krane J. Energy Kingdoms: Oil and Political Survival in the Persian Gulf. – Ithaca: Cornell University Press, 2019. 52-56 //https://dokumen.pub/energy-kingdoms-oil-and-political-survival-in-the-persian-gulf-9780231548922.html

4. Fathallah H. Saudi Energy Policy and Global Order // Carnegie Endowment for International Peace. Sada . – 06.04.2023. // https://carnegieendowment.org/sada/2023/04/saudi-energy-policy-and-global-order?lang=en

5. Chaziza M., Lutmar C. Saudi Arabia’s Niche Diplomacy: A Middle Power’s Strategy for Global Influence // World. – 2025. – Vol.6. –No.2. – Article 65//https://www.mdpi.com/2673-4060/6/2/65

6. Oil prices spike as Saudi Arabia, Russia extend 1.3 million barrel a day oil cut through December // AP News– 2025//https://apnews.com/article/saudi-arabia-oil-production-cut-opec-2d6f724e899f31e92d4bdf052921125c

7. Saudi Arabia and Russia clash within OPEC+ over oil production increases // Reuters. – 2025. // https://www.reuters.com/business/energy/opec-set-another-oil-hike-saudi-russia-debate-size-sources-say-2025-10-03/

8. IEA. World Energy Outlook 2025. – Paris: International Energy Agency, 2025. // https://www.iea.org/reports/world-energy-outlook-2025 (ko‘rilgan: 12.01.2026).

9. European Commission. EU Green Deal. – Brussels: European Commission, 2023. // https://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/en/fs_23_23

10. Saudi Vision 2030 Annual Report 2024 //https://www.vision2030.gov.sa/en/annual-reports